

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi
Turg'unova Saboxon

Anotatsiya: Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o'qitish tarbiyalash, rivojlantirish va realitatsiya qilishning shartlaridan biri bu mutaxasislarning har birining eshitish funksiyasi holatining hususiyatlari ni tog'ri tushunish va ularni barcha turdagi psixologik va ruhiy kasalliklar tizimida hisobga olishdir.

Kalit sozlar: tashqi quloq vestibulyar apparat eshitish nayi, dahliz, otolit toshlar, parda labrint, yarm doira kanalcha

Bugungi kunda eshitishda nuqsoni bolgan bolalar va osmirlargab nisbatan gamxorlik, ularni ijtimoiy qollab quvvatlash, talim tarbiya jaroyonini ularga mos ravishda tashkil etish, soglom jamiyatga tenglashtirishdek ota masuliyatli vazifalar bir qator meyoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bolob, asosiy maqsad o'quvchilarni mustaqil hayotga va kasb hunarga tayyorlash, jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berishdan iboratdir. Eshitishda nuqsoni bolgan bolalarga talim tarbiya berishni ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Eshituv a'zosining rivojlanishining buzilishi

Bunda eshituv a'zosining notog'ri rivojlanganligi kuzatiladi, yani a'zoning shakli, tuzilishi o'zgaradi. bu 3xil turda bo'ladi.

1. Og'ir turida – tashqi quloqning tog'ay qismi pastga va ko'proq old tomonga yo'nalgan bo'ladi, bundan tashqari tashqi quloqning suyak qismi, no'g'ora bo'shlig'i, undagi suyakchalar va eshituv nayi butunlay bo'lmasligi mumkin.

2. O'rta turida-tashqi eshituv yo'li old tomonda joylashgan bo'lib, uning suyak qismi yo'q bo'lishi mumkin. Kichik bolg'acha, sandoncha suyakchalar yaxshi rivojlanmay, bir-biri bilan yopishgan holda bo'ladi.

3. Yengil turida-tashqi eshituv yo'lining suyak qismi juda tor, quloq parda kichik, xira ko'rinadi. Ichki quloqda ham turli xil tug'ma nuqsonlar bo'lishi mumkin. Bu to'g'rida turlicha fikrlar va usullar bor. Eshitish qobiliyatini yaxshilash maqsadida jarroxlilik usulidan foydalaniladi.

Psixiatrlar bolada autizm borligini darrov aniqlashga qiynalishadi. Bunga autizm alomatlari normal rivojlanayotgan bolada ham kuzatilishi sabab bo'ladi. Shu bois tashxis ko'pincha kechikib qo'yiladi. Autizm uchun xilma-xil holatlar xos, bunda go'dak bor-yo'g'i 2-3 ta alomatga ega bo'lishi mumkin, bu ham tashxis quyishni qiynlashtiradi.

Atrofimizda xatti-harakatlari real voqeylik bilan bog'liq bo'lmagan, yonidagilar bilan muloqot qilishni xohlamaydigan, yolg'izlikni yoqtiradigan, fikrlashi boshqalarga o'xshamaydigan insonlarga nisbatan "sal g'alatiroq" degan iborani ishlatamiz. Bunday holatni tibbiyotda "autizm" deb atashadi. Autizm (grekcha "autos" – "o'zim" degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdegilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Kasallikka doir "autizm" terminini fanga 1912 yilda E. Bleyler kiritgan. Uning fikricha, xasta odam o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqeylik bilan bog'liq emas.

Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Kasallikning ilk belgilari uch yoshgacha kuzatiladi. Ba'zan klinik belgilar barvaqt aniqlanishi ham mumkin. Kar bolalarning 25–30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi – bituvi). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. vestibulyar apparat retseptorlari faqat harakat tezligini ozgarishidan tasirlamadi. tezlanmagan yoki sekinlanmagan teks harakat retseptorlarga tasir etmaydi. vestibulyar aparatdan boshlangan afferent nerf tolalari orqali markaziy nerv sistemasiga doimo, hatto tinchlik sharoitida ham siyrak impulslar berib turadi. Aylanma harakatni boshlarida va oxirida impulslar castatasi keskn darajada oshadi. Impulslarning tez tez zarplari ayni vaqtda 25 sekund chamasi davom etadi. aylanma harakat teks bolsa, yarm doira kanallaridan boshlangan afferent nerv tolalarida impulsatsiya bolmaydi. Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarini o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdegilar nutqini eshitmaydi va hattoki, bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni faollashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/4061/2889>
2. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0012/S-148a.pdf>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-nuqsoni-bor-bolalarni-psixologik-tasnifi>
4. M.R.Po 'latxo 'jaeva-“Defektologiyaning klinik asoslari”